

IJTIMOY DAVLAT KONSEPSIYASI: SHAKLLANISHI, NAZARIY ASOSLAR VA MODELLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18288714>

Tursunaliyeva E'zozaxon Ilxomjon qizi

FarDU Ijtimoiy ish kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Zamonaviy dunyoda davlatning roli faqat siyosiy hokimiyatni amalga oshirish bilan cheklanib qolmaydi. U jamiyat a'zolarining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish kabi mas'uliyatlarni ham o'z zimmasiga oladi. Shu nuqtai nazardan, "ijtimoiy davlat" tushunchasi inson huquqlari va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan ilg'or davlat boshqaruvi modeli sifatida shakllandi. Mazkur maqolada ijtimoiy davlat konsepsiyasining nazariy asoslari, uning belgilari va modellari, ijtimoiy davlatga nisbatan yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar

ijtimoiy davlat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat va tenglik, ijtimoiy himoya, iqtisodiy barqarorlik, liberal model, korporativ model, skandinavcha model, huquqiy davlat.

Bugungi kunda har bir davlat o'z fuqarolarining hayot darajasini oshirish, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda adolatli jamiyat qurish yo'lida harakat qilmoqda. Shu jarayonda "ijtimoiy davlat" tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy davlat – bu inson manfaatlarini ustuvor qo'yadigan, aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlaydigan hamda har bir fuqaroning munosib hayot kechirish huquqini kafolatlaydigan davlatdir.

Ijtimoiy davlatning asosiy belgilari uning jamiyatda o'ynaydigan rolini va vazifalarini aniqlab beradi. Ular quyidagi jihatlarida ifodalanadi:

1. Ijtimoiy adolat va tenglik. Ijtimoiy davlatning bosh maqsadi – jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashdir. Bu davlat barcha fuqarolarga bir xil imkoniyatlar yaratib berish va ularning asosiy huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy farqlarni kamaytirish uchun davlat turli ko'mak va yordam dasturlarini amalga oshiradi.

2. Ijtimoiy himoya. Ijtimoiy davlat fuqarolarni ijtimoiy xavfsizlik bilan ta'minlashni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb hisoblaydi. Bu sug'urta tizimlari, pensiya dasturlari, tibbiy yordam va boshqa ijtimoiy himoya shakllari orqali

amalga oshiriladi. Shuningdek, fuqarolarni ishsizlik, kasallik, nogironlik va boshqa turdagi ijtimoiy xavf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan dasturlar muhim o'rin tutadi. Rossiyalik tadqiqotchi O.V.Rodionovaning fikricha ham "ijtimoiy davlat keng va samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga yo'naltirilgan davlat bo'lib, u inson va fuqaro huquqlarining realligida, qulay va samarali tizimlar mavjudligida namoyon bo'lishi kerak. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, kam ta'minlanganlarni qo'llab-quvvatlash bularning hammasi bir tizimning alohida elementlari hisoblanadi".⁷⁰

3. Ijtimoiy xizmatlar. Davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy va boshqa asosiy ehtiyojlarni qamrab oladi. Ijtimoiy davlat bu xizmatlarni bepul yoki imtiyozli shartlarda taqdim etadi, bu esa aholining barcha qatlamlari, jumladan, zaif guruhlar uchun ham ulardan foydalanish imkoniyatini beradi.

4. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Ijtimoiy davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham faol ishtirok etadi. Iqtisodiy tanglik va inqirozlar paytida davlat aholiga moddiy yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari orqali yordam beradi. Bu, o'z navbatida, aholining turmush darajasini saqlashga va iqtisodiy tanglikning salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy davlatning turli shakllari mavjud bo'lib, ular davlat siyosati va boshqaruv tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Keng qabul qilingan tasniflardan biri 1990-yilda daniyalik olim Esping-Andersen tomonidan ishlab chiqilgan tasnifdir, unda ijtimoiy davlat uch asosiy modelga bo'linadi:

✓ Liberal model. Liberal modelda davlatning ijtimoiy sohada ishtiroki minimal darajada bo'ladi. Bu model asosan Angliya, AQSh kabi davlatlarda qo'llaniladi. Ijtimoiy yordam va xizmatlar asosan xususiy sektor tomonidan ko'rsatiladi va davlat faqat zaif aholini qo'llab-quvvatlash bilan cheklanadi. Bozor munosabatlariga katta e'tibor qaratilib, fuqarolarning o'zini o'zi ta'minlash qobiliyatiga urg'u beriladi.

✓ Korporativ model. Korporativ modelda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik ko'proq ahamiyat kasb etadi. Bu modelda davlat ijtimoiy sug'urta tizimlarini va korporativ strukturalarni qo'llab-quvvatlaydi, lekin ko'plab xizmatlar va yordamlar professional tashkilotlar va kasaba uyushmalari orqali amalga oshiriladi. Bunday model ko'pincha Germaniya va Avstriyada qo'llaniladi.

✓ Skandinavcha model. Skandinavcha modelda davlatning ijtimoiy sohada ishtiroki maksimal darajada bo'ladi. Bu modelda davlat ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarni keng ko'lamda bepul taqdim etadi. Fuqarolar o'rtasida

⁷⁰ Родионова О.В. Проблемы развития теории и практики современного социального государства. LEX RUSSICA. No 1 (ТомXCVIII). 2015. С. 28-41

yuqori darajadagi tenglikni ta'minlashga qaratilgan. Skandinavcha model ko'proq Skandinaviya davlatlarida, jumladan, Shvetsiya, Norvegiya va Daniyada keng tarqalgan.

Ijtimoiy davlat – mazkur sohaga ustuvorlik qaratiladigan, fuqarolar tengligi ta'minlanadigan, ularning tabaqalarga ajratilishiga yo'l qo'ymaydigan, umumiy farovonlik bo'ladigan jamiyat demak. Ikkinchi jahon urushidan keyin ijtimoiy davlat rivojlanishining sifat jihatdan yangi bosqichi – uni konstitutsiyaviy tamoyilda qurish, davlatning alohida turi sifatida talqin qilish boshlangan. Urushdan ko'p o'tmay, ijtimoiy davlat konstitutsiyaviy tamoyil sifatida Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, keyinroq 70-yillarda Ispaniya, Portugaliya, Shvetsiya konstitutsiyalarida mustahkamlangan.⁷¹ Hozirgi vaqtda dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari u yoki bu darajada de-fakto ijtimoiy davlatlar hisoblanadi.

Ijtimoiy davlat nazariyasi uzoq tarix va xilma-xil qarashlarga ega bo'lib, u turli nuqtai nazar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Sinfy-analitik ijtimoiy davlat nazariyasi: Bu yondashuv davlatni shakllantirishda sinfiy qarama-qarshilik va iqtisodiy manfaatlarining rolga e'tibor qaratadi. Unda davlat betaraf hakam emas, balki hukmron sinfnings quyi sinflarni ekspluatatsiya qilish va zulm qilish quroli ekanligi ta'kidlanadi. Davlat sinfiy kurash quroli va tarixiy materializm mahsuli sifatida qaraladi. Sinfy-tahliliy yondashuv sinfiy munosabatlarning davlat va uning siyosatini shakllantirishdagi rolining ahamiyati yuqori ekanligiga alohida urg'u beradi.

Liberal ijtimoiy davlat nazariyasi: Bu yondashuvga ko'ra davlat fuqarolarning huquqlari, erkinliklarining kafolati bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Bu nazariyaga ko'ra, davlat o'z vakolatlarining bir qismini saqlagan holda oqilona yondashuv va shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma bilan mustahkamlaydi.

Neo-Veber ijtimoiy davlat nazariyasi: Bu yondashuv davlatning byurokratik va ma'muriy jihatlariga qaratilgan. U Veberning ratsional-huquqiy hokimiyat konsepsiyasiga va uning siyosiy rejimlar tipologiyasiga asoslanadi. Unda davlat o'z manfaatlarini, mantiqiyligi va muxtoriyatiga ega bo'lgan murakkab tashkilot sifatida tahlil qilinadi. Davlat tartib va qonuniylik manbai sifatida qaraladi. Bundan tashqari, Neo-Veber ijtimoiy davlat nazariyasi zamonaviy ijtimoiy davlatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar va muammolarini tahlil qiluvchi istiqboldir. Bunda ijtimoiy davlat nafaqat sinfiy kurash, iqtisodiy manfaatlar yoki oqilona tanlov mahsulidir, balki davlat-jamiyat munosabatlarini, davlat salohiyatini va ijtimoiy

⁷¹ Ernazarov, D. (2020). ДЗ СИЁСИЙ ТОЛЕРАНТЛИК ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ ДАВЛАТ СИЁСАТИДАГИ РОЛИ ВА АҲАМИЯТИ. Архив научных исследований.

munosabatlarni shakllantiruvchi tarixiy, madaniy va institutsional omillarning natijasidir, degan g'oyaga asoslanadi.

Kulturalistik ijtimoiy davlat naariyasi: Bu yondashuvda madaniyat, o'ziga xoslik va me'yorlarning davlatni shakllantirishdagi roliga e'tibor qaratiladi. Unda davlat nafaqat moddiy mavjudot, balki jamiyat qadriyatlari, e'tiqodlari va rivojotlarini aks ettiruvchi va takror ishlab chiqaruvchi ramziy va diskursiv konstruksiya deyishimiz mumkin. Madaniyatni bir guruh odamlarning jamoaviy o'ziga xosligi va xulq-atvorini shakllantiradigan qadriyatlar, e'tiqodlar, me'yorlar va amaliyotlar yig'indisi sifatida tushunish mumkin. Davlat esa madaniyat tashuvchisi va ma'no yaratuvchisi sifatida qaraladi.

Huquqiy davlat va ijtimoiy davlat yagona bir butunlikni tashkil etadi, chunki huquqiy tizimning rivojlanishi faqat sivilizatsiyalashgan jamiyat doirasida mumkin bo'ladi va ijtimoiy munosabatlarning tartiblanishi va rivojlanishi huquqiy tizim ta'sirida sodir bo'ladi. Ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi ham ijtimoiy, ham iqtisodiy huquqlarni, shu jumladan, mehnat qilish huquqi va barcha fuqarolar uchun adolatli mehnat sharoitlari, munosib yashash maoshi, ijtimoiy ta'minot va boshqalarni ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy davlat haqida fikr yuritar ekanmiz, bu yuqori sinf, uning normal hayotni tashkil etishga va umuman jamiyat taraqqiyotiga, inson huquqlarini himoya qilishga, barcha fuqarolar va xalqlarning erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilishga qaratilganligini anglatadi. Bunday siyosiy tizim ijtimoiy keskinlikdan qochishga imkon beradi.

Shuningdek, farovonlik davlati moddiy boylik va boshqa qadriyatlarni yaratadigan rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Demokratik hokimiyat rejimiga ega bo'lgan sivilizatsiyalashgan davlatning mavjudligi va rivojlanishiga zamin yaratadigan ana shunday jamiyatdir. Jamiyati rivojlangan mamlakatda asossiz ijtimoiy tafovutlar mavjud emas, davlat apparati fuqarolarning mavjud bo'lishi uchun iqtisodiy foydalarni ishlab chiqaradi va taqsimlaydi. Davlatda erkin iqtisodiy faoliyat mavjud, ammo shu bilan birga u butun jamiyat manfaatlari yo'lida qonun bilan tartibga solinadi.

Ijtimoiy davlatda "o'rta sinf" deb ataladigan narsa vujudga keladi va rivojlanadi, bu jamiyatning bir qismi bo'lib, u zaruratga ehtiyoj sezmaydigan darajada, lekin ortiqcha narsalarga bardosh bera oladigan darajada boy bo'lmagan qatlam hisoblanadi. Bu omil hech qanday manfiy emas, chunki "o'rta sinf"ning mavjudligi mamlakatda yuqori ishlab chiqarish va iqtisodiy barqarorlik, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, ishsizlikning pastligi va qonuniy me'yorlarga rioya qilishning kafolati hisoblanadi. Ijtimoiy tuzilmaning bir turi sifatida ijtimoiy davlat o'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida shakllandi. Bunday tuzilmaning paydo

bo'lishiga hal qiluvchi ta'sir sovet Ittifoqi tomonidan amalga oshirildi. Hozirgi davrda ijtimoiy davlatning har xil modellari mavjud.

Mutaxassislar tomonidan xorijiy davlatlar ijtimoiy siyosatining tahlili natijasida ijtimoiy davlatning uchta modeli Skandinaviya, Kontinental, Amerika-Buyuk Britaniya modellari ajratiladi.

Birinchidan, Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya davlatlari Skandinaviya modelini o'zida namoyon qiladi. Bu mamlakatlarda davlat byudjetni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy xarajatlarning anchagina qismini o'z bo'yniga oladi. Bu davlatlar o'z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun mas'ul bo'ladi. Bu faoliyat davlat byudjeti va ijtimoiy sug'urta jamg'armalari tomonidan moliyalashtiriladi. Bu ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish asosan munisipalitetlar, ya'ni mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, Germaniya, Avstriya, Belgiya va Fransiyada ijtimoiy davlatning kontinental modeli yuqori darajada rivojlangan. Bu davlatlarda davlat asosan aholining muhtoj qismiga ijtimoiy yordam pullarini berishga mas'ul hisoblanadi. Lekin aholiga davlat ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanmaydi. Ijtimoiy xarajatlarda davlat va xususiy ijtimoiy sug'urta jamg'armalari tomonidan qoplanadi. Ya'ni ijtimoiy ta'minot byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hamda ish beruvchi va xodimlarning sug'urta badallaridan ta'minlanadi.

Shunday qilib, birinchidan, Skandinaviya, Kontinental, Amerika-Britaniya modellari bo'yicha ijtimoiy davlatlarda, liberal davlatlarda davlat tomonidan ijtimoiy xarajatlarga minimal mablag'lar ajratiladi, bir vaqtning o'zida ijtimoiy yordamga muhtojlar har tomonlama o'rganiladi. Bajarilgan ish hamda tadbirkorlik bilan shug'ullanish natijasida olinadigan har tomonlama kafolatlangan daromad fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ehtiyojmand aholining ijtimoiy muhofazasiga qaratilgan siyosat ijtimoiy davlatning tub zamini yaratilganidan dalolat beradi. Davlat byudjeti mablag'larining ellik foizdan ortig'i ijtimoiy sohalarga yo'naltirilayotganining o'zi ham buni yaqqol isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy davlat – bu inson manfaatlarini himoya qiladigan, fuqarolarga munosib hayot sharoitini yaratishga intiladigan, adolatli va tenglik tamoyillariga asoslangan davlatdir. Bunday davlatda iqtisodiy taraqqiyot bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlik, aholining farovonligi va ijtimoiy himoya tizimi muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston sharoitida ham ijtimoiy davlat tamoyillarini amalga oshirish mamlakatni har tomonlama rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Kambag'allikni kamaytirish, aholini qo'llab-quvvatlash, sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar ijtimoiy davlat g'oyasining amaldagi ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Родионова О.В. Проблемы развития теории и практики современного социального государства. LEX RUSSICA. No 1 (ТомХСVIII). 2015. С. 28-41
2. Ernazarov, D. (2020). DZ SIЁСИЙ ТОЛЕРАНТЛИК ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ ДАВЛАТ СИЁСАТИДАГИ РОЛИ ВА АҲАМИЯТИ. Архив научных исследований.
3. Ernazarov D. Ilmiy adabiyotlarda "Ijtimoiy davlat" tushunchasi va uning xususiyatlari // Ma'naviy tarbiya va targ'ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta'sirchan usullari: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -Toshkent: Afzalzoda books nashriyoti, 2023. -B. 292
4. Anarbaev Jakhongir Batir o'g'li "IJTIMOIY DAVLAT NAZARIYALARI" maqola